XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 24-iyul VII-11-81-11-154-K/25 Buvayda tumani

Buvayda tuman mahalliy budjetiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda qabul qilingan “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga (*Keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi.*) muvofiq, Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha stavkalarini belgilash, mahalliy budjeti xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi.

Mazkur Qonunga, O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-148-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

`

QAROR QILADI:

1. Buvayda tuman mahalliy budjetiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi Buvayda tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o`rinbosari A.Ergashevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O`zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 148-moddasiga asosan bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larni boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorining:

- 10 foiz va undan ortiq miqdorda xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan;

- 10 foizdan kam miqdorda tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi, bundan ushbu Kodeks 145-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

3. Tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi tasarrufidagi bir budjet tashkiloti va budjet mablag‘lari oluvchidan boshqa budjet tashkiloti va budjet mablag‘lari oluvchi uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘larni o‘tkazish hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar so‘roviga ko‘ra tumanlar va shaharlar Iqtisodiyot va moliya bo‘limlari tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilganligi inobatga olinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi ishchi guruhuning Buvayda tumaniga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-iyuldagi 318-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda budjet tashkilotlarining so`rov xatlarini inobatga olib, tuman mahalliy budjetiga ilova asosan o`zgarishlar kiritilsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo`limining birinchi o‘rinbosari (A.Ergashev)ga tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga kiritilayotgan o‘zgarishlarni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshirish vazifasi yuklatilsin

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig`i (D.Maxsitaliev) tegishli ravishda budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini Kengashga kiritib borilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy isloxotlar bo`yicha” doimiy komissiyasi (Z.Mamajonov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo`limi boshlig`i (D.Maxsitaliev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



IBRAGIMOV BEXZOD ODILJONOVICH

Buvayda tuman Mahalliy budjetning 2025-yil xarajatlar yoyilmasiga kiritilayotgan o'zgarishlar to'g'risida

ming so'mda

№	Bo'lim,kichik bo'lim	Kichik bo'lim	Bob	Toifa, Modda va kichik modda,element	O'zgarish summasi-jami				Shu jumladan,choraklar bo'yicha															
					Ko'paygan		Kamaygan		(Ko'paygan+; Kamaygan-)															
					%	Summa	%	Summa	I	Yanvar	Fevral	Mart	II	Aprel	May	Iyun	III	Iyul	Avgust	Sentabr	IV	Oktabr	Noyabr	Dekabr
1		2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
1	7011	209	018	4252110		0		6 300	**0**				**0**				**-4 300**	-3 000	-1 300		**-2 000**	-2 000		
2	7011	209	018	4252120		0		6 300	**0**				**0**				**-4 000**	-1 000	-3 000		**-2 300**		-2 300	
3	7011	209	018	4299990		0		37 690	**0**				**0**				**-25 090**	-15 090		-10 000	**-12 600**		-6 000	-6 600
4	7085	400	026	4252110		0		2 700	**0**				**0**				**-2 700**	-2 700			**0**			
5	7085	400	026	4252120		0		8 796	**0**				**0**				**-3 196**	-196	-3 000		**-5 600**		-5 500	-100
6	7085	400	026	4299990		0		9 251	**0**				**0**				**-491**	-491			**-8 760**	-7 860		-900
7	7109	401	018	4721900		71 037		0	**0**				**0**				**39 777**	22 477	7 300	10 000	**31 260**	9 860	13 800	7 600
8	7065	200	084	4354950		0		50 000	**0**				**0**				**-50 000**	-50 000			**0**			
9	7065	200	084	4252110		0		22 583	**0**				**0**				**0**				**-22 583**			-22 583
10	7065	200	084	4299990		0		37 889	**0**				**0**				**0**				**-37 889**			-37 889
11	7065	200	084	5354990		0		504 400	**0**				**0**				**0**				**-504 400**			-504 400
12	7065	200	084	4355100		0		25 128	**0**				**0**				**0**				**-25 128**			-25 128
13	7011	312	222	4354990		40 000		0	**0**				**0**				**40 000**	40 000			**0**			

14	7091	100	072	4299990		550 000		0	0				0				**550 000**	550 000			**0**			
15	7092	100	072	4354990		0		374 129	0				0				**-216 430**	-169 930		-46 500	**-157 699**			-157 699
16	7092	100	072	4252110		424 129		0	0				0				**424 129**	424 129			**0**			
Tuman bo'yicha jami					**0**	**1 085 166**	**0**	**1 085 166**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**747 699**	**794 199**	**0**	**-46 500**	**-747 699**	**0**	**0**	**-747 699**